XALQ DEPUTATLARI BOYOVUT TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 21 - sentabr VI-40-118-9-123-K/22 Boyovut tumani hokimligi

Boyovut tumanida Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

1. “Geografik ob’ektlarni nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktyabrdagi O‘RQ-303-sonli Qonuni, “Geografik ob’ektlarni nomlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq “Geografik ob’ektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi 295-sonli qarori hamda Respublika komissiyasining 2013-yil 21-iyundagi topshiriqlari ijrosini ta’minlash yuzasidan tumandagi nomsiz va nomi takrorlangan qabristonlarning nomlarini nomlash va qayta nomlash maqsadida, tumandagi “Sarmich”, “A.Navoiy”, “Sovotobod”, “Laylakko‘l”, “Muqimiy”, “Mirishkor”, “S.Ayniy”, “Ziyokor”, “Navbahor”, “Shirin”, “Iftixor”, “Yangibo‘ston”, “Uchturgon”, “Istiqlol”, “Olmazor”, “Tinchlik”, “Yangiobod”, “Bunyodkor”, mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi qabristonlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha Xalq deputatlari Boyovut tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Boyovut tumani mahalla fuqarolar yig‘inlaridan kelib tushgan iltimosnomalar, tuman hokimligi huzuridagi “Geografik ob’ektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi” tuman komissiyasining 2022-yil 9-maydagi 1/01-52-sonli yig‘ilish bayoni, O‘zbekiston Respublikasi Er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasining 2022-yil 30-maydagi 08-04383-sonli ekspertiza xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Boyovut tumanidagi 18 ta mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi qabristonlarni nomlash va qayta nomlash ro‘yhati **1-ilovaga** asosan tasdiqlansin.

3. Boyovut tumani Davlat soliq inspeksiyasi (O‘.Sariboev), Boyovut tumani Statistika bo‘limi boshlig‘i (A.Berdinazarov), Boyovut tumani Davlat xizmatlari markazi boshlig‘i (E.Ernazarov), tuman hokimligi moliya bo‘limi (v.v.b B.Axmadov), Boyovut tumani Ichki ishlar bo‘limi (J.Abramov), O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligi Sirdaryo viloyati Boyovut tumani bo‘limi (S.Sherboyev) va tegishli mutasaddi tashkilot rahbarlariga.

Mazkur qaror asosida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarni e’tiborga olsinlar va mazkur qarordan kelib chiqqan holda tegishli idoraviy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Yuldashev), tuman hokimligi moliya bo‘limi (v.v.b B.Axmadov)larga:

bir hafta muddatda hududlarda nomlari o‘zgargan geografik ob’ektlarning nomini belgilangan tartibda zamonaviy ko‘rinishdagi (lotin yozuvida) peshlavxalarga yozib o‘rnatish choralarini ko‘rish;

peshlavxalar o‘rnatish va moliyalashtirish yuzasidan tegishli tashkilotlarga ko‘rsatmalar berish va nazoratga olish.

5. Tuman hokimligi huzuridagi “Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash” masalalari bo‘yicha komissiya a’zolari, Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Z.Kamalov)ga:

- bir hafta muddatda hududlarda nomlari qayta nomlangan geografik ob’ektlarning nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilansin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (F.Po‘latov)ga;

- hududlarda nomlari qayta nomlangan geografik ob’ektlarning yangi nomlarini bosma ommaviy axborot vositasi va tuman hokimligi rasmiy veb-sayti orqali yoritish tavsiya etilsin.

7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashi huzuridagi ta'lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Odilov) hamda tuman hokimining o‘rinbosari (G‘.Sulaymonqulov) zimmalariga yuklatilsin.

8. Mazkur kengash sessiya qarori va qayta nomlangan geografik ob’ektlar bo‘yicha hujjatlar Sirdaryo viloyati hokimligiga taqdim etilsin.

9. Mazkur qaror rasmiy nashrlarda e’lon qilingan kundan boshlab qonuniy kuchga kiradi.

Kengash raisi **D.Uralova**

Xalq deputatlari Boyovut tuman
Kengashining
2022 yil 21 sentabrdagi
VI-40-118-9-123-K/22-son qaroriga
1-ilova

Boyovut tumanidagi qabristonlar to‘g‘risida

M A ‘ L U M O T

№	MFY nomi	Qabristonlarning hozirgi nomi		Qabristonni umumiy maydoni (Ga)	Qaysi yili tashkil topgan	Qaysi dinga mansub
		Krill alifbosida yozilishi	Lotin alifbosida yozilishi			
1	Shirin MFY	Қоракир	Qoraqir	6,6	1980	islom
2	Sarmich MFY	Мингчинор	Mingchinor	16,5	1948	islom
3	A.Navoiy MFY	Уяс	Uyas	11,94	1925	islom
4	Uchturgon MFY	Султонховуз	Sultonhovuz	7,53	1949	islom
5	Muqumiy MFY	Ер мачит	Yermasjid	19,15	1929	islom
6	Iftixor MFY	Мангулик	Mangulik	1,3	1942	islom
7	S.Ayniy MFY	Бирoдарлик	Birodarlik	9,8	1925	islom
8	S.Ayniy MFY	Уч ёғоч	Uchyog‘och	10,1	1935	islom
9	Yangibo‘ston MFY	Ободмаскан	Obodmaskan	0,86	1950	islom
10	Laylakko‘l MFY	Қоракум	Qoraqum	4,1	1931	islom
11	Mirishkor MFY.	Солиҳлар	Solihlar	1,5	1961	islom
12	Yangiobod MFY	Қайирма	Qayirma	3,01	1956	islom
13	Yangiobod MFY	Дарвозақир	Darvozaqir	7,95	1953	islom
14	Tinchlik MFY	Тинчлик	Tinchlik	1,9	1950	islom
15	Tinchlik MFY	Юқориқишлоқ	Yuqoriqishloq	3,04	1951	islom
16	Olmazor MFY	Мингўрик	Mingo‘rik	4	1948	islom
17	Sovotobod MFY	Совотобод	Savotobod	2,03	1949	islom
18	Sovotobod MFY	Муаззам	Muazzam	2,058	1956	islom
19	Ziyokor MFY	Қўшчинор	Qo‘shchinor	9,4	1974	islom
20	Navbahor MFY	Жийдали	Jiydali	3,04	1951	islom
21	Navbahor MFY	Халқобод	Xalqobod	1,09	1994	islom
22	Navbahor MFY	Минг терак	Mingterak	2,08	1953	islom
23	Bunyodkor MFY	Эзгулик	Ezgulik	3,5	1937	islom
24	Istiqlol MFY	Насроний	Nasroniy	2,09	1930	nasroniy
Jami:				134,568		